# BOG‘CHA YOSHIDAGI BOLALARGA TIL O‘RGATISH METODIKASI

*Samarqand davlat chet tillar instituti*

*Ingliz tili va adabiyoti nazariyasi kafedrasi*

*Sh.O.Mamayaqubova*

*Elektron pochta: mamayaqubovashahlo@gmail.com*

*Tel:+998937261746*

*Do‘stmurodova Muazzam Bahodir qiz*

*Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi. Ingliz tili fakulteti II*

**Annotatsiya**: Bog‘cha yoshida bo‘lgan bolalarga chet tilini qiziqtirib o‘rgatishda mavzuga doir musiqiy o‘yinlar, so‘z o‘yinlari va turli xil ko‘rgazmali qurollardan samarali foydalangan holda o‘rgatish usullari. Kichik yoshdagi bolalarning har biriga e'tiborli bo‘lish talab qilinadi. Har bir bola bilan gaplashib qiziqishlarini aniqlab olgach ularga mos o‘yinlar, qo‘shiqlar, diqqatini jalb qiluvchi qiziqarli va rangli o‘yinchoqlarda va tarqatmalar materiallardan foydalanish joiz.

**Kalit so‘zlar**: ko‘rgazmali qurollar, qiziqarli tarqatmalar, qo‘shiqlar, musiqa, o‘yinlar.

## Методика обучения языку детей дошкольного возраста.

*Самаркандский государственный институт иностранных языков*

*Кафедра теории английского языка и литературы*

*Мамаякубова Ш.О.*

*Электронная почта: matayqubovashahlo@gmail.com*

*Телефон: +998937261746*

*Достмурадова Муаззам Бахадир — девушка*

*Студентка Самаркандского государственного института иностранных языков. Факультет английского языка II*

**Аннотация:** Методика тематических музыкальных игр, словесных игр и различных наглядных пособий для обучения детей детсадовского возраста иностранному языку в интересной форме. Внимание требуется каждому из младших детей. Поговорив с каждым ребенком и определив его интересы, используйте соответствующие игры, песни, интересные и красочные игрушки, привлекающие его внимание, раздаточный материал.

**Ключевые слова:** наглядные пособия, веселые раздаточные материалы, песни, музыка, игры.

Birinchi navbatda bolalar bilan salomlashamiz va mavzuni boshlashdan oldin, mavzuga oid narsalar bilan bolalar bilan kichik suhbatlar olib boramiz, bolalarning har bir soʻziga e'tibor beramiz, ularning fikrini ham eshitib koʻramiz. Bolalarda mavzuga oid  bir qancha tushuncha xosil qilish uchun musiqiy oʻyinlarni va turli xil oʻyinlar bilan darsni davom ettiramiz. Chunki bolalarda mavzuga oid tushuncha paydo boʻladi va darsni tushunishlari oson, qiziqarli boʻladi. Bolalar tushunishni boshlagandan soʻng har xil qiziqarli tarqatmalarni tarqatamiz, uni ham oʻyin tariqasida oʻtkazamiz. Tarqatmani bolalarning sevimli rangi yoki multik qahramonlariga mos holda berishimiz ham mumkin. Bolalar tarqatmani qoʻliga olgandan soʻng ularni koʻrib nimalarni tasavvur qilganligi haqida ham soʻraymiz. Sekin mavzuni tushuntirishni boshlaymiz.

Kichik yoshdagi bolalarni diqqati tez bo‘linishi mumkin yoki tez zerikib qilmasliklari uchun dars muhitini o‘yinlar bilan olib borish kerak. Misol uchun o‘yin turlari;

- Musiqiy o‘yinlar- bu o‘yinni ekran orqali turli xil harakatli videolar bilan bolalar ham bu harakatlarni va so‘zlarni qaytargan holda o‘yinni o‘tkazish mumkin.

-Qo‘shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolish qiyin bo‘lgan, ma'noga ega bo‘lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o‘rgatish.

-Bunga misol qilib ingliz tili alifbosini qo‘shiq qilib o‘rgatish, yod olishdan ko‘ra samarali bo‘lishi mumkin.

-Aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan o‘yinlar.

-Bolalar bilan dars vaqtida ular o‘zlarini erkin holda yurishlari uchun har xil xalq ertaklarini sahnalashtirish orqali ham oddiy va sodda so‘zlarni o‘rgatish va bolani dunyo qarashini o‘stirish mumkin.

-Ko‘zga ko‘rinadigan va kundalik hayotda ko‘p ishlatiladigan narsa, buyumlarni yozish va talaffuz qilish orqali ham o‘rgatish mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak yosh bolalarga til o‘rgatish qiziqarli mashg‘ulot. Chunki yosh bolalar oq qog‘oz misoli bo‘lishadi, siz unga nimani yozsangiz shu narsani o‘qiydi. Kichik yoshdagi bolalarning zehni, eslab qolish darajasi kuchli bo‘ladi. Darsni qiziqarli mashg‘ulot tarzida olib borilishi, samarali usullardan foydalanib dars o‘tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Astrafiev M.D. Ingliz tilini o‘rganayotgan bolalar uchun ta'til. -M.: Mozaika-sintez 2009 y.

2. Guseva L.P. Biz o‘ynaymiz, o‘qi ta miz, o‘zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni hoxlaymiz. - Rostov n/a: Feniks, 2009 y.

3. Ivanova M. V. Bolalar uchun ingliz tili -M: AST: Astrel, 2009 y.

4. Ga Pskova N. D. Nikitenko Z.N. Chet tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti boshlang‘ich maktab: uslubiy qo‘llanma. -N.: Airis-press 2004 y.

5. Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. -M.: VAKO, 2008 y.